



“GLOBAL IQLIM O‘ZGARISH SHAROITIDA RESURS VA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”

mavzusidagi
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI

2024 YIL 8 OKTABR
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



SHO'RLANGAN TUPROQLAR SHAROITIDA SHO'RGACHIDAMLI EKINLAR YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI <i>Sheraliyev Hamidulla, Tuxtamishev Mansur Akram o'g'li, Ibragimova Fotima Ortiqboy qizi</i>	191-194
TOMCHILATIB SUG'ORILGAN MAKKAJO'XORI NAVLARINI YETISHTIRISHNING TAJRIBA SINOV NATIJALARI <i>J.Eshonkulov, L.B.Isoyeva, R.Zokirjonov, M.Anarbayev</i>	195-197
MAKKAJO'XORI NAVI VA DURAGAYLARINI TURLI SUG'ORISH TARTIBLARINING TUPROQ SUV O'TKAZUVCHANLIGI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI <i>L.B.Isoyeva, J.Eshonkulov, B.Shukurov, R.Zokirjonov</i>	197-200
ULTRATEZPISHAR KUZGI BUG'DOY NAVLARINING MAQBUL SUG'ORISH TARTIBI VA MINERAL O'G'IT ME'YORLARINI ISHLAB CHIQISH. <i>N.H.Durdiyev, Z.I.G'opporova.</i>	200-202
МАҲАЛЛИЙ ЕРЁНҒОҚ НАВЛАРИ ҲОСИЛДОРЛИГИГА СУҒОРИШ ТАРТИБЛАРИНИ ТАЪСИРИ <i>Худайкулов Жонибек Бозарович, Бўриев Искандар Астанович.</i>	203-208
SUG'ORISH TARTIBLARI VA USULLARINING SOYA NAVLARI DONIDAGI MOY HAMDA OQSIL MIQDORIGA TA'SIRI <i>Tuxtamishev Mansur Akram o'g'li, Buyamirzayeva Gulxayyo Qodirjon qizi, Ibragimova Fotima Ortiqboy qizi</i>	208-211
SHO'RLANAGN YERLANING MELARATIV XOLATINI YAXSHILASH VA SHO'R YUVISH ISHLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH. <i>Normurodov E'zozbek Jahonir o'g'li, Bazarbaev Shavkat Aybek O'g'li, Ubaydillayev Abdusamat</i>	211-215
ТУРЛИ СУҒОРИШ УСУЛЛАРИДА МАВСУМИЙ СУҒОРИШ МЕЪЁРЛАРИНИНГ ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ГЎЗАНИНГ ТЕРМИЗ-202 НАВИ ЎСИШ, РИВОЖЛАНИШ ҲАМДА ҲОСИЛДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ <i>Болтаев Сайдулла Мақсудович, Бўриев Зокир Жумаевич.</i>	216-220
SUG'ORISH TARTIBI VA OZIQLANTIRISH ME'YORLARIGA BOG'LIQ HOLDA BIOSTIMULYATOR QO'LLASHNING PAXTA HOSILIGA TA'SIRI <i>Muxammadiyeva Oygul Normengliyevna, Ulug'ov Chorshanbi Xudaynazar o'g'li, Ziyatov Musulman Panjiyevich</i>	220-224
СОЯНИ ЭГАТЛАБ, ЁМҒИРЛАТИБ СУҒОРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИГА ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ НАТИЖАЛАРИГА ТАЪСИРИ <i>Хусанбоева Хуснора Собиржоновна</i>	224-228

**ULTRATEZPISHAR KUZGI BUG'DOY NAVLARINING MAQBUL
SUG'ORISH TARTIBI VA MINERAL O'G'IT ME'YORLARINI ISHLAB
CHIQISH.**

¹N.H.Durdiyev, ²Z.I.G'opporova.

¹Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, q.x.f.d, dotsent, Toshkent. ²ToshDAU tayanch doktorant.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ultratezpishar kuzgi bug'doy navlari, tadqiqot obekti, predmeti, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati

Kalit so'zlar. Kuzgi bug'doyning Ultra va Flesh navlari, sug'orish tartibi, mineral o'g'it me'yorlari.

Annotation. In this article, ultrafast winter wheat varieties, research object, subject, research goals and tasks, scientific novelty, scientific and practical significance of research.

Key words: Ultra and Flesh varieties of winter wheat, irrigation method, mineral fertilizer norms.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida yaqin kelajakda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va ushbu jabhani rivojlantirish yuzasidan agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, fermer va dehqonlar daromadini 2 barobarga ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratish, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini 5 foizga yetkazish kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning farmoni bilan O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 10 yillik 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, boshqoli don bozorida intervension mexanizmlar joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosildorligi va raqobatbardoshligi istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalardan sanaladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli hosil yetishtirish uchun turli agrotexnologiyalarning kuzgi bug'doyning dala va laboratoriya unuvchanligini o'rganish borasida dala tajribalari o'tkazildi. Tajriba dalasi Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida PSUYAITI dala tajriba uchastkasida ekilgan bo'lib sizot zuvlar sathi 18-20 m chuqurlikda joylashgan [2].

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orish muddatlarini aniqlash uchun ko'plab uslub va usullardan foydalaniladi. Nafaqat bug'doy, balki ko'plab ziroatlarni sug'orish muddatlarini tuproq namligi bo'yicha belgilash eng ishonchi uslublardan biri bo'lib, ziroatlardan yuqori hosil olish uchun tuproqda o'simlik o'zlashtira oladigan doimiy namlik bo'lishi zarur va unga maqbul namlik darajasi ta'minlanishi kerak. Shuning uchun ham sug'orish oldi tuproq namligini belgilangan me'yorlarda saqlab turish uchun sug'orish oldi tuproq namligini termostat tarozi usulda aniqlab borish klassik usul hisoblanadi. [1]

Tadqiqot obekti sifatida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari, kuzgi bug'doyning tezpishar "Ultra" va "Flesh" navlari olindi.

Tadqiqot predmeti esa tuproqning agrokimyoviy, agrofizik xossalari, su'orish tartiblari, mineral o'g'it me'yorlari va texnologiyasi, o'simlikning o'sishi-rivojlanishi, barg hujayra shirasi konsentratsiyasi, don va somon hosildorligi hamda donning sifat ko'rsatkichlari bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida ultratezpishar kuzgi bug'doy navlarining maqbul sug'orish tartibi va mineral o'g'it me'yorlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- sug'orish tartiblarining tuproq agrofizikaviy xossalari ta'sirini aniqlash;
- mineral o'g'it me'yorlarining tuproq agrokimyoviy xususiyatlariga ta'sirini o'rganish;
- kuzgi bug'doy donining dala va laboratoriya unuvchanligini aniqlash;
- kuzgi bug'doyning sug'orish oldi tuproq namligi, sug'orish muddatlari, davomiyligi, mavsumiy suv sarfi va bir sentner hosil uchun sarflangan suv sarfi hamda suv ist'emoli ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash;
- kuzgi bug'doyning fazalar bo'yicha barg hujayra shirasi konsentratsiyasi ya'ni refraktometr ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

- sug'orish tartiblari va mineral o'g'it me'yorlarining kuzgi bug'doyni o'sishi-rivojlanishi, quruq massa to'plashiga ta'sirini o'rganish;
- sug'orish tartiblari va mineral o'g'it me'yorlarining kuzgi bug'doy fazalar o'tish jadalligiga ta'siri aniqlash;
- sug'orish tartiblari va mineral o'g'it me'yorlarini kuzgi bug'doyning bir dona boshodagi va 1000 dona don vazni hamda don sifatiga ta'sirini aniqlash;
- qo'llanilgan yangi agrotexnologiya elementlarining kuzgi bug'doy don va somon hosiliga ta'sirini aniqlash;
- kuzgi bug'doyning ultratezpishar navlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ilk bor Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doyning tezpishar "Ultra" hamda "Flesh" navlarining maqbul sug'orish tartiblari va mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorlari ishlab chiqiladi;

Turli sug'orish tartiblari va oziqlantirish me'yorlarining yangi kuzgi bug'doyning tezpishar "Ultra" va "Flesh" navlarining o'sishi-rivojlanishi, hosildorligi, quruq massasi, bir dona boshodagi don vazni va 1000 dona don vazniga ta'siri aniqlanadi.

Kuzgi bug'doyning tezpishar "Ultra" hamda "Flesh" navlarining sug'orish muddatlarini aniqlash uchun refraktometr ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi hamda 1 sentner hosil uchun sarflangan suv sarfi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki maqbul suv-oziqa me'yorlarini aniqlashda tadqiqotlar olib boriladigan tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy va agrofizikaviy xossalari o'zgarishlar dinamikasi, maqbul suv, o'g'it (NPK) me'yorlari va sug'orish tartiblarining ilmiy asosda ishlab chiqilishi va ushbu agrotadbirlarning kuzgi bug'doyning o'sish-rivojlanishi, quruq massa to'plashi, 1 dona boshodagi don vazni, hosildorligi, don sifatiga ta'siri o'rganilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doyning tezpishar "Ultra" va "Flesh" navlarining maqbul suv-oziqa me'yorlari ishlab chiqilib, maqbul sug'orish tartibi va o'g'it qo'llash texnologiyasi amaliyotga joriy etilishi hisobiga yuqori va sifatli don hosili yetishtirilishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. O'z PITI, Toshkent, 2007 y., - b.1-146.
2. www.agriculture.uz (ToshDAU axborot resurs markazi)
3. <http://www.gov.uz/uz/news/view/1442> (Hukumat portali)